O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI



INKLYUZIV TA’LIMDA TIFLOPEDAGOG O‘QITUVCHINING O‘RNI VA AHAMIYATI

(Pedagog xodimlar uchun qo‘llanma)

Toshkent – 2021

O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori **L.R.Gaynutdinovaning** umumiy tahriri ostida

Tuzuvchilar:

U.Fayziyeva	p.f.n., dotsent O‘quvchilarni kasb- hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi bo‘lim boshlig‘i
S. Mo‘minov	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi bo‘limi metodisti

Taqrizchilar:

F.Qodirova p.f.d. professor	Chirchiq DPI Defektologiya kafedrasi mudiri
R.Safarov	Toshkent shahar Yashnaobod tumani 77-sonli ko‘zi ojiz bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat direktori

Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi Ilmiy Metodik kengashining 2021-yil 27-dekabrdagi 4-sonli qarori bilan ma’qullangan.

Kirish




Respublikamizda shu vaqtgacha ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi maxsus maktab-internatlar mavjud bo‘lsada ushbu maktablarda yetarli darajada tiflopedagog o‘qituvchilar va o‘quv dasrturlarining yetishmasligi kuzatilayotgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi “Alohida ta’limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860 sonli qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash, O‘zbekistonda alohida ta’limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish, ularga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash borasidagi muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va pedagogik psixologik respublika tashxis markazi tomonidan tiflopedagog o‘qituvchilarni qayta tayyorlash kurslari va “Inkyuziv ta’lim laboratoriyasi” tashkil etilib, inklyuziv ta’lim maktablari va ommaviy maktablarda tashkil etilgan korreksion sinflar uchun moslashtirilgan adaptiv dasturlar tuzish ishlari yo‘lga qo‘yildi.

Ko‘zi ojiz o‘quvchilar ta’limi

Ko‘zi ojiz o‘quvchilarning kelajakdagi hayotga moslashuvi va o‘z o‘rnini topib, to‘liq ish bilan ta’minlanishidagi muammolar doimiy ravishda barchamizni birdek tashvishga solib keladi. Bu muammo faqat birgina bizda emas butun dunyo mamlakatlarida kuzatiladi. Ushbu muammoli holatning yechimi maktabgacha ta’limdan boshlab korreksion rivojlantiruvchi va moslashib harakatlanish, o‘z-o‘ziga xizmat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, qo‘l motorikasini rivojlantirish atrof muhitda o‘zini idora qilish va boshqa hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishga erishishdan boshlanishi zarur. Maktab ta’limi jarayonida barcha fanlarni o‘qitish bilan bir qatorda, boshlang‘ich sinflardan boshlab kasbga yo‘naltirish, imkoniyati va iqtidoridan kelib chiqqan holda kasb tanlashishiga erishish zarur.Yuqori sinflarda “Kasb-hunar ta'limi” jarayonida o‘quvchilar kasblar bo‘yicha umumiy ma’lumot olish bilan bir qatorda qiziqqan va o‘zi uchun tanlagan kasbi haqida chuqurroq ma’lumot olishi uchun sharoit yaratilgan bo‘lmog‘i zarur. Bolalarni maktabgacha va kichik maktab yoshidan boshlab kasb–hunarga yo‘naltirish ishlarini boshlash talab qilinadi. Bu ishlar ko‘rishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilarni kelajakdagi hayotlarida ish bilan ta'minlanishi uchun juda muhim hisoblanadi.

Shu orqali ko‘rishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilarni ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topishi, foydali mehnat bilan shug‘ullanishi, ota-onaga qaramlikdan chiqishi va eng asosiysi nuqsonidan uyalmasligi hamda ozgina bo‘lsada nuqsonini esdan chiqarishiga olib kelish mumkin.

Har bir o‘quvchi o‘z oldiga maqsad qilib olib turli xil kasblardan birini tanlashi kerak yoki o‘qituvchi hamda jamoa vakillari ma’lum bir kasb tanlashiga ko‘maklashishi talab qilinadi. Shuningdek, har bir o‘quvchi o‘zi haqida, o‘zining qobiliyatlari va potensiallari to‘g‘risida aniq tushunchalarni bilishi, zarur hollarda chetdan rivojlantirilishi kerak.



Ko‘rishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilarga kasbiy bilim berish jarayonida quyidagilarga e’tibor bering :

• o‘z-o‘zini anglashiga (kuchli va zaif tomonlari, maqsadlari, qiziqishlari va qobiliyatlari) yordam bering;

• kasblarga oid xabardorlik;

• ish izlash qobiliyatlari;

• ishga tayyorlanish (e’lonlarni topib xabardor bo‘lish, ma’lumot olish, o‘zi e’lon yozish, maxsus treninglardan o‘tish);

• Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarni ish bilan ta'minlash va bandlikka ko‘maklashish markazlarini topish.

Ko‘zi ojizlik ko‘zi ojiz o‘quvchilarga o‘zlari uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy jarayonlarni, xatti-harakatlarni kuzatishi va hayotiy ko‘nikmalarni o‘rganishga xalaqit beradi. Ko‘zi ojiz o‘quvchiga sog‘lom tengdoshlari tevarak-atrofdagi vodealarni kuzatish va modellashtirish, ko‘z bilan ko‘rish orqali tabiiy ravishda o‘rganadigan ijtimoiy va hayotiy ko‘nikmalarni o‘rgatishlari kerak.

Buning uchun:

- O‘quvchini o‘qituvchi va suhbat bo‘layotgan tomonga qarab o‘tirishini va yuz bilan qarashga o‘rgatish lozim;

- Ko‘zi ojiz o‘quvchilarda ko‘zni tinmay qimirlatishi yoki takroriy ishqalash kabi holatlar bo‘lishi mumkin. Bunday holatlar ijtimoiy hayotda boshqa insonlar bilan o‘zaro aloqa bog‘lash jarayonlariga xalaqit berishi mumkin. Shuning uchun doim psixolog va ko‘z shifokorlaridan professional maslahatlar olib turish maqsadga muvofiqdir;

- Odatda o‘quvchi ko‘pincha kimdir uni jalb qilguncha jimgina kutib turadi. Shuning uchun ko‘zi ojiz o‘quvchini sog‘lom tengdoshlari suhbat jarayoniga yoki o‘yin faoliyatiga undashi kerak.

- O‘quvchiga boshqalarning shaxsiy menini tushunishga va hurmat qilishga yordam berish, shuningdek, boshqalardan xushmuomalalik bilan o‘z shaxsiy maqomini hurmat qilishni so‘rashi kerak bo‘ladi;

- Ko‘zi ojiz o‘quvchi ma'lumot olish va aniq tushunchalarni shakllantirish uchun obyektlarni taktik jihatdan o‘rganishi kerak. Biroq, o‘quvchi obyektga tegish mumkin bo‘lgan maqbul vaqtni, ayniqsa, tegishli va noo‘rin jismoniy aloqa bilan bog‘liq bo‘lgan narsalarni o‘rganishi kerak;

- O‘quvchiga o‘z ehtiyojlarini yetkazib berishga undash;

- O‘quvchini turli xil jamoaviy bo‘lib bajariladigan ishlarda qatnashishga undash;

- Og‘zaki bo‘lmagan muloqot qobiliyatlarini o‘rgatish juda muhimdir ya’ni. mimika, tana harakati va imo-ishoralarini izohlashda yordam berish;

-O‘quvchi faqat o‘z ustida ishlashi va shaxsiy namunali odob-axloqini namoyon qilishni bilishi kerak;

-O‘quvchiga his-tuyg‘ularni aniqlashda va ularni ijtimoiy maqbul usullarda ifoda etishga yordam berish;

-O‘quvchi muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

-O‘quvchini o‘zini o‘zi to‘g‘ri anglashini rivojlantirishi kerak;

-O‘quvchini o‘zining ko‘zi ojizligini his qilmaslikka undash kerak;

- Ko‘zi ojiz o‘quvchi unga nisbatan tengdoshlarining munosabatidan xabardor bo‘lishi va unga javob berishni o‘rganishi kerak;

o‘quvchilar balog‘at yoshini bosib o‘tish jarayonida **o‘spirinlar uchun maslahat va yordam beriladi**. Shaxslararo munosabatlar, tanishish, notanish insonlar haqida bilib olishadi. Ular ushbu vaqt oralig‘ida mumkin bo‘lmagan faoliyat turlari haqida bilib olishlari shu jumladan, avtotransport vositalarini boshqarish imkoniyati yo‘qligini tushunib yetishilari, tengdoshlari orasida bola o‘zini qabul qilishi uchun xulq-atvor, madaniyat, muomala, hurmat-izzat katta ta'sir ko‘rsatishini bilishi lozim. Bu ayni vaziyatda o‘quvchi uchun o‘z-o‘zini qiyofasini shakllantirish juda muhimdir.

Inklyuziv ta’lim o‘qituvchisi - zamonaviy o‘qituvchi qiyofasida: Hozirgi kunda innovatsion bilim, malaka hamda ko‘nikmalar bilan qurollangan zamonaviy inklyuziv ta’limga jalb etilgan o‘qituvchi xuddi ommaviy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar qatori, tashqi ko‘rinish madaniyatiga e’tibor bilan qarashi va o‘zida zamon talabi darajasidagi tashqi qiyofani odat qilishi maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi o‘quvchilarga, va ijtimoiy hayotda har qanday sohada faoliyat olib borayotgan insonlarga o‘rnak bo‘lishi zamon talabi deb hisoblayman. O‘qituvchining tashqi qiyofasi,ya’ni kiyinish uslubi ko‘pincha uning ichki dunyosi, madaniyatini aks ettiradi, ya’ni toza, ozoda, qulay, ko‘zga tashlanmaydigan zamonaviy o‘qituvchi qiyofasi, madaniyatini o‘zida aks ettirgan bo‘lishi o‘quvchilar uchun ibrat bo‘lib qoladi. O‘qituvchining butun qiyofasi bolalarni o‘quv jarayonidan chalg‘itmasligi–pedagog oldiga qo‘yilgan asosiy talablar sirasiga kiradi. Ushbu o‘rinda Rashod Nuri Guntekinning “Choli qushi” asarini eslash joiz deb o‘ylayman. Chunki asarda Feride ismli muallima qizning ko‘rinishi, o‘zini tutishi, muomala va munosabat madaniyatini eslaylik.

O‘qituvchining nutqi hamma vaqt o‘zbek adabiy tilini o‘zida aks ettiruvchi, zamonaviy texnika,texnologiya, xalqaro qabul qilingan terminologiyalardan to‘g‘ri va o‘rinli ravishda qo‘llashi, bu hozirgi kun va zamon talabi. Agar o‘tiladigan dars mashg‘uloti mavzusi o‘qish, hikoya, roman yoki doston bo‘lsa, u obrazga kirib, yorqin, ya’ni rolga kirib, bolaning qalbiga kirib boradigan darajada qiziqtira olishi talab etiladi. Agar mashg‘ulot mavzusi og‘zaki bayon etish, tushuntirishdan iborat bo‘lsa, nutq tekis, ravon, bir maromda va osoyishta bo‘lishi maqsadga muvofiq. Butun jarayonda o‘qituvchi o‘z nutqining grammatik va leksik savodxonligiga

e’tibor bergan holda sustkashlikka yo‘l qo‘ymasdan, kerakli o‘rinda obrazli qilib, o‘quvchilar havas bilan taqlid qiladigan darajada to‘g‘ri, til ko‘nikmalariga kuchli e’tibor qaratilishi lozim. Shu o‘rinda inklyuziv ta’lim jarayonida alohida ehtiyojli o‘quvchilarning nutqni to‘g‘ri va savodli egallashi uchun aynan o‘qituvchiga taqlid qilish orqali amalga oshirilishi hisobga olinishi, birinchi o‘rinda turishi lozim.

Inklyuziv ta’lim jarayonida o‘qituvchi maksimal darajada xushmuomalalik va sabr-toqatni namoyon qilishi, qo‘pollik va hurmatsizlikka mutlaqo yo‘l qo‘ymasligi talab qilinadi. O‘quvchi bilan muloqot do‘stona ruhda, optimistik kayfiyatda bo‘lishi talab etiladi.

O‘qituvchining bolalarga berayotgan har qanday ma’lumotida insonparvarlik, samimiylik aks etib turishi, inklyuziv ta’limda faoliyat olib borayotgan bunday o‘qituvchi bilan bir marta muloqotga kirishgan shaxs (ota, ona, bola) da u bilan yana suhbatlashish, muammolari bilan dardlashish istagi paydo bo‘ladigan bo‘lsin. Shunda ko‘zlangan maqsadga tez va samarali erishish mumkin.

Inklyuziv ta’limda faoliyat olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot qobiliyati, gnostik ko‘nikma, didaktik mahorat, o‘yin qobiliyati, tashkiliy ko‘nikmalar, kommunikativ-rejissyorlik, prognostik va aks ettirish qobiliyatlari hamda ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Undan tashqari doimiy ravishda motivatsion ko‘nikmalarni ham rivojlantirib borishi, ya’ni o‘quv jarayonida bolalar nima uchun va nima o‘rganayotganliklarini va bu qanday yordam berishi mumkinligini anglshi, ularning istak va xohishlarini aniqlay olishi lozim.

Nogironligi bo‘lgan bolalar bilan ishlaydigan inklyuziv ta’lim o‘qituvchisini tayyorlash jarayonida inklyuziv ta’limga o‘tkazilishi va taqsimlanishi uchta asosiy tizimidan iborat bo‘lishi kerak:

-ta’lim mazmuni – bu tizimda zarur kasbiy bilimlar aks etadi. O‘qituvchi o‘zining mutaxassisligini egasi va puxta bilim sohibi bo‘lishi talab qilinadi;

- bo‘lajak inklyuziv sinf o‘qituvchisining kasbiy mahorat tizimini mukammal darajada shakllantirish tushiniladi;

-hozirgi zamon talabidan kelib chiqib dars jarayonlarini kasbga yo‘naltiruvchi ruhda hayot va amaliyotga bog‘lagan tarzda tizimli qilib olib boorish nazarda tutiladi.

Inklyuziv ta’lim o‘qituvchisining kasbiy va shaxsiy tayyorgarligi uchun zarur ko‘nikmalar:

- inklyuziv ta’lim nima ekanligini tushunish, uning an'anaviy ta'lim shaklidan farqi nimada ekanligi?

- inklyuziv ta'lim muhitida bolalarning psixologik holati, yoshi va shaxsiy xususiyatlarini bilishi;



- Sog‘lom va nogironligi mavjud bo‘lgan bolalarni birgalikda o‘qitish uchun o‘quv jarayonini psixologik, pedagogik, didaktik loyihalash usullarini bilishi;

- ta'lim muhitining barcha sub'ektlari (har bir bolalar bilan individual va guruhda ishlash, ota-onalar, hamkasblar, mutaxassislar, menejment vakillari bilan) o‘rtasida turli xil pedagogik hamkorlik usullarini amalga oshirish qobiliyatini mavjud bo‘lishi;

- Inklyuziv ta’lim o‘qituvchisining kasbiy faoliyat yo‘nalishlari;
- Oldini olish;
- Tashxis qo‘yish va maslahat berish;
- Pedagogik ta'lim berish;
- Psixologik va psixoterapevtik yordamda ishtirok etish;
- Ta’lim va ijtimoiy-pedagogik faoliyatda faol ishtirok etish;
- Ta’limni tashkil etish va boshqarish;
- O‘qitish faoliyati;

Inklyuziv ta’limda zamonaviy bilim va texnologiya bilan qurollangan tiflopedagog faoliyati. Biz rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar bilan ishlaydigan insonparvar o‘qituvchining eng muhim kasbiy ahamiyatli xususiyatlari qanday bo‘lishi kerak degan savolga quyidagicha javob beramiz:

Rahmdil, insoniy munosabatlar, bolalar uchun foydali bo‘lish istagi, o‘zini o‘zi qadrlash, hamdardlik, kuchli mas’uliyat, sabr-toqat, bag‘rikenglik, stressli vaziyatlarga nisbatan bag‘rikenglik, rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolaning shaxsiga hurmat hissini o‘zida jamlash kabilardir.

Ko‘rish qobiliyati cheklangan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish bilan umumtalim maktablarida t**iflopedagog o‘qituvchilar shug‘ullanadi.** Tiflopedagog o‘qituvchisi inklyuziv ta’lim joriy qilingan tashkilotlarda faoliyat yuritishi uchun maxsus (korreksion xonalar, ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar ta’limi uchun texnik vositalar) sharoitlar yaratilgan bo‘lishi va ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalarning ta’limi bilan faqatgina tiflopedagog o‘qituvchi shug‘ullanishi ko‘zda tutilgan. **Tiflopedagog o‘qituvchining eng asosiy vazifalaridan biri axloqiy ta’limdir.** 1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar o‘z tanalarining anatomik xususiyatlarini ota-onalari, tengdoshlari va aka-ukalari bilan bir necha bor taqqoslab ko‘radilar. Odatda, ko‘rish qobiliyati past bo‘lgan bolalar axloqiy (jinsiy) tushunchalar bo‘yicha hech qanday ma’lumot olishmagan va bu bolalar ommaviy maktabga kelganda, o‘zlarining tengdoshlaridan orqada qolishgan bo‘ladi. Har qanday bolaning, ayniqsa, ko‘zi ojiz bolaning jinsiy maqsadli ta’limini boshlash hech qachon zarar qilmaydi. Jinsiy tarbiyani o‘rgatish murakkab ko‘nikmalar va tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

• Jinsiy identifikatsiyani o‘rnatishga bolani yoshligidan boshlash kerak. Jinsiy belgilarni bevosita ko‘rish qobiliyati past bo‘lgan o‘quvchiga o‘rgatish kerak;

• Jinsiy organlar va reproduktiv organlar uchun anatomik to‘g‘ri nomlarni, shuningdek jinsiy yo‘naltirilgan narsalar va xatti-harakatlar uchun terminologiyani o‘z ichiga olgan yoshga mos lug‘at ishlab chiqish;

• Reproduktiv jarayonni va tegishli yoshdagi tug‘ilishni nazorat qilishni o‘rgatish;

• Balog‘at yoshiga etmagan qizlarni hayz ko‘rish boshlanishiga hissiy va jismoniy jihatdan tayyorlash;

• Balog‘at yoshidan oldin o‘g‘il bolalarni balog‘at boshlanishiga hissiy va jismoniy jihatdan tayyorlash;

• Ko‘zi ojiz o‘quvchiga shaxsiy jinsiy faoliyat uchun mos vaqt va joy nimani anglatishini tushuntirish;

• Sevgini ko‘rsatishning tegishli usullarini o‘rgatish;

• Yaqin munosabatlarni rivojlantirish;

• Jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklarni bilish;

• Jinsiy zo‘ravonlikni bilish;

• ota-onalar va tibbiyot hamshirasi bilan ishlash va hokazolarni o‘rgatish talab qilinadi.

Tiflopedagog o‘qituvchining vazifalari sifatida:

1. Ko‘rishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilarni har tomonla rivojlantirish; jumladan: pedagogik va psixologik jihatdan o‘rganish, nuqsonlarning turlarini aniqlashtirish, jismoniy va ruhiy jihatdan rivojlantirish;

2. Ko‘rishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasi maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarini qayta ishlash;

3. Bola shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirish uchun barcha maxsus mo‘ljallangan ishlarni amalga oshirish.

4. O‘quvchilarni mehnatga va kasb-hunarga yo‘naltirilgan imkoniyatlarni yaratish.

5. Maxsus o‘quv rejalar, dasturlar va darsliklarni tuzish.

6. Inklyuziv ta’lim joriy qilingan maktablarni rivojlantirishni yo‘lga qo‘yish.

Davolash va tiklash ishlari inklyuziv ta’lim joriy qilingan maktablarda okulist rahbarligida amalga oshiriladi. Pedagog va tarbiyachilar ham shifokor

tavsiyalarini o‘z vaqtida bajarishga yordam beradilar. Ko‘zoynak va boshqa optik ko‘ruvchi korreksiyalovchi vositalarni tavsiya qilish davolash ishining asosi hisoblanadi. Pedagog va tarbiyachilar bolalarni ko‘zoynaklardan shifokor tavsiya qilganidek to‘g‘ri foydalanishlarini nazorat qiladi. Ko‘zoynakni opravasini (qolipi) to‘g‘ri tanlash muhim rol o‘ynaydi. U yuz hajmini qorachiqlari orasidagi masofaga mos tushishi shart, quloqlarni, burunlarni qismasligi lozim.

Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi bolalarni mehnatga va mustaqil hayotga tayyorlashda maxsus mashg‘ulotlarning o‘rni katta. Misol uchun: davolovchi jismoniy tarbiya, fazoda mo‘ljalga olish kabilar.

Davolovchi jismoniy tarbiya mashqlari orqali turli kasalliklarni amaliyot davomida davolash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va jismoniy tarbiya madaniyatiga ham qat’iy amal qilishimiz zarur. Fazoda mo‘ljal olish ko‘rishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilarning muhim ehtiyoji hisoblanadi. Mo‘ljal olishga o‘rgatish bolalarni bog‘cha yoki maktab atrofida erkin mo‘ljal olishga o‘rgatadi. Bu mashg‘ulotlarni qancha erta boshlansa shuncha yaxshi natija beradi.

Asosiy vazifa - Ko‘rish qobiliyati past bo‘lgan bolalarning ko‘p qirrali rivojlanishi uchun sharoit yaratish va ikkilamchi (ya’ni, asosiy zaiflik tufayli) rivojlanish nuqsonlarini yengib o‘tishi uchun ko‘maklashishdir.

Tiflopedagog o‘qituvchisi tevarak-atrofdagi dunyo haqidagi g‘oyalarni shakllantirish va boyitishda, mavjud bo‘lgan analizatorlarni (qoldiq ko‘rish, shuningdek eshitish, taktil, hid bilish, mushak-artikulyar tuyg‘ular) safarbar qilishda faol ishtirok etadi hamda ko‘zi ojiz yoki zaif ko‘ruvchi bolalarning jismoniy rivojlanishidagi o‘ziga xos og‘ishlarni (gipodinamiya, obsessif harakatlar, noto‘g‘ri yurish va boshqalar) tuzatish bo‘yicha ham ishlaydi. Ushbu vazifalarni bajarish ko‘zi ojiz bolaning yuqori muvaffaqiyatlarga erishishiga yordam beradi.

Ko‘rishida muammosi bo‘lgan inklyziv sinf o‘quvchilarini ushbu murakkab jarayonni bajarish uchun tiflopedagog o‘qituvchisi yordam guruhni tashkil qilsa juda ham samarali natija beradi. Jamoani shakllantirish g‘ayrat, ishonch va o‘zaro hurmatga asoslanadi. Bu uzoq muddat davom etadigan istiqbolli vazifalarni yanada samarali bajarilishiga olib keladi. Ushbu jamoa kelajakdagi vazifalarni tayyorlash, rejalashtirish va hamkorlikda o‘rganish uchun asos yaratadi. O‘quvchilar, ota-onalar, jamoat va maktab xodimlari bilan muqobil aloqalarni o‘rnatish o‘quvchining ijtimoiy, hissiy, kommunikativ va ta’limiy rivojlanishiga yordam beradi. Ko‘pincha ko‘rish qobiliyati past bo‘lgan o‘quvchi uchun bir qator yordam xizmatlari mavjud.

Yordam guruhi quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:



• o‘quvchi ;
• ota-onalar;
• sinf o‘qituvchilari;
•maxsus ta’lim resurs o‘qituvchisi;
• maktab direktori;
• o‘qituvchi yordamchisi (lar);
• ko‘rish qobiliyati cheklangan o‘quvchilar uchun o‘quv maslahatchisi;
• ko‘z mutaxassisi;
• yo‘nalish va harakatchanlik bo‘yicha mutaxassis;
• texnologiya mutaxassisi;
• maktab maslahatchisi;
• alohida ehtiyojli o‘quvchilar uchun maktab bo‘linmasi koordinatori;
• o‘rinbosar o‘qituvchisi;
• tegishli xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar (o‘qitish psixologi, kasbiy va fizik terapevt, logoped va defektolog va boshqalar).

Inklyuziv ta’lim jarayonida oila bilan ishlash jarayonini ochib berish uchun bir necha bosqichlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir.Birinchi bosqich. disfunksional oilalarni aniqlashda nosoz oilalarni (farzandi uchun befarq, nogironligidan uyalish, ta’lim-tarbiyaga befarq) aniqlash uchun ijtimoiy o‘qituvchi oilani o‘rganishning turli usullaridan foydalanadi:

- bolalarni nazorat qilish;

- ota-onalar bilan so‘rab-surishtirish ishlarini olib borish, zarur bo‘sa ota -onalar bilan bolalardan birdek surishtirish ishlarini olib boorish, bu oilaga yordam va qo‘llab -quvvatlash tizimi asos bo‘lgan doimiy component ya’ni oilaviy diagnostikadir. Diagnostik muolajalarni o‘tkazish bir qator prinsiplarga rioya qilishni talab qiladi: murakkablik, xolislik, etarlilik, izchillik va boshqalar. Agar kerakli ko‘rsatmalar bo‘lmasa, siz tashxisni kengaytirmasligingiz kerak. Yangi tadqiqot faqat oldingi diagnostika ma'lumotlarini tahlil qilish asosida amalga oshirilishi mumkin. Siz ota -onalarning shikoyatlarini dastlabki tashxisidan boshlashingiz kerak, so‘ngra ushbu shikoyatlarning to‘g‘riligini o‘rganib, bu buzilishlarning sabablarini aniqlab olishingiz mumkin. Ikkinchi bosqich. Oilaviy tarbiya turlarini aniqlashda ijtimoiy pedagog ota-ona munosabatlarini o‘rganishga qaratilgan usullardan foydalanadi; har bir oila a'zosining etakchi xulq -atvorini aniqlash; oiladagi muloqot tabiatini o‘rganish ko‘zda tutiladi. Uchinchi bosqich. Oila bilan ishlash shakllari va usullarini farqlashda o‘qituvchi oilaviy ta'limning keng tarqalgan turini hisobga olgan holda, oilada bolaga bo‘lgan munosabatni to‘g‘rilashga qaratilgan oila bilan ishlash rejasini ishlab chiqadi. To‘rtinchi

bosqich. Birgalikda ishlashni tashkil qilishda oilaga yordam berish uchun (axborot, vositachilik, bo‘sh vaqt, ijtimoiy va pedagogik) turli mutaxassislar bilan hamkorlik qilish ko‘zda tutiladi. (pedagog xodimlar, vasiylik va homiylik bo‘limining inspektori, ijtimoiy himoya va boshqalar).

Maktab jamoasining oila bilan ishlashning asosiy funksiyalari: “Xavfsizlik va himoya” sida bu bolalar hayoti xavfsizligini, tashqi tahdidlardan himoyalanishni ta'minlash, bolaning qonuniy huquq va manfaatlarini qonuniy himoya qilish hamda unga shoshilinch yordam ko‘rsatishga qaratilgan. Profilaktika funksiyasi boshqa muassasalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘qituvchilar yordamga muhtoj oilalarni erta aniqlash bo‘yicha ish olib boradilar, oila ichidagi nizolarni hal qilishda o‘z vaqtida yordam ko‘rsatadilar va oilaviy ta'lim sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar beradilar, malakali huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatadilar. Qayta tiklash funksiyasi orqali o‘qituvchilar oiladagi bolalarning yashash sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha chora -tadbirlar ko‘rsatsalar, bolaning ijtimoiy mavqeini tiklashga yordam beradi, uning sotsializatsiyaning asosiy institutlari bilan aloqalarini mustahkamlaydi, funktsional muvaffaqiyatsizlikni engishga tayyor oilalarning harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Tuzatish va rivojlanish funksiyasi bilan kompleks diagnostika asosida bolalar va uning oilasi bilan tibbiy -ijtimoiy, psixologik va pedagogik ishlarning chora -tadbirlari tizimi aniqlanadi. Sog‘lomlashtirish funksiyasi bolaning sog‘lig‘ini mustahkamlash bo‘yicha hamrohlik va tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Kompensatsiya funksiyasi. agar bolaning begonalashuvini bartaraf etishning iloji bo‘lmasa, biologik oilani almashtirish yo‘llarini topishdan iborat.

Mutaxassislarning oilalari bilan faoliyati uchta yo‘nalishda amalga oshiriladi. Ta'lim yo‘nalishida ota -onalarga ta'lim - tarbiyada yordam berishni o‘z ichiga oladi. O‘qitishga yordam ota -onalarning pedagogik madaniyatini shakllantirishga va ularni tarbiyalashga qaratilgan. Tarbiyada yordam berish oilaning tarbiyaviy salohiyatini mustahkamlash maqsadida maxsus tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish orqali amalga oshiriladi. Bu yo‘nalish oilaviy yordamning pedagogik modelidan foydalanishga asoslangan. Psixologik yo‘nalish ijtimoiy va psixologik yordam va tuzatishni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi lavozimidan bunday qo‘llab -quvvatlash oilada qulay psixologik muhitni yaratishga qaratilgan. Psixolog bilan ittifoq tuzishda yordam berish eng samarali bo‘ladi. Maktabni ota -onalar guruh bilan bevosita ishlashi ota -onalar bilan uchrashuvlar, ma'lumot almashish, bajarilgan ishlarning borishi va bolaning muvaffaqiyati haqida hisobot berish, kelajak rejalarini muhokama qilish;

ota -onalar yig‘ilishidagi nutqlar va ularning savollariga javoblar;

ota-onalar uchun seminarlar, nutqlar, suhbatlar, rolli o‘yinlar tashkil etish;

Shomilning u yoki bu mavzusi bo‘yicha ota -onalar uchun maxsus kurs tashkil etish;

madaniy tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazishda ota -onalarni jalb qilish;

ota -onalardan o‘z munosabatlari, ko‘rsatiladigan yordamdan keyingi umidlari haqida suhbat qilinadi. Ota -onalar guruhi bilan bilvosita ishlash:

- ota -onalarga qanday, qanday sharoitda va qanday holatlarda aniq mutaxassislar bilan bog‘lanish haqida ma'lumot berish (psixolog, o‘qituvchi, direktorning tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, direktor);

- ota -onalar uchun ofisda yoki "burchakda" kitoblar, uslubiy adabiyotlar ko‘rgazmasini tashkil etish;

- test jarayonini tushuntiruvchi buklet tayyorlash, natijalarning qanday izohlanishini baholash;

- uyda ota -onalarga kitob tarqatish;

- uy vazifasi yoki bo‘lajak tadbirlar, dam olish imkoniyatlari uchun yozma takliflar tayyorlash;

- ota -onalarning ehtiyojlari va fikrlarini aniqlash uchun so‘rovnomalarni yuborish;

- ota -onalar bolalarni kutayotgan stend yoki e'lonlar taxtasini tashkil etish.

Oilalar inklyuziv maktablarni tanlaydilar, shunda ularning farzandlari odatdagidek rivojlanayotgan tengdoshlari bilan o‘zaro aloqani kengaytiradi, shuningdek, boshqa ota -onalar va o‘qituvchilar bilan bog‘lanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Maktab o‘qituvchilari tomonidan nogiron bolani tarbiyalashda oilaning sa'y -harakatlariga berilgan yuqori ijobiy baho oila va maktab o‘rtasidagi samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Buning uchun, birinchi navbatda, hissiy aloqa, ishonch, hurmat va qabul, ota -onaning yordami va ularning fikrlarini inobatga olish ko‘zda tutilgan. Oila bilan maslahat, profilaktika va tarbiyaviy ishlar hamkorlik g‘oyasiga, uning tarbiyaviy imkoniyatlarini oshirishga, ota-ona va bola o‘rtasidagi uyg‘un munosabatlarni o‘rnatishga asoslangan. Bu ishning maqsadi “Ota -onalarning ta'lim jarayonidagi oilaning roliga psixologik munosabatini o‘zgartirish; bola bilan munosabatlar uslubini o‘zgartirish; oilaning pedagogik imkoniyatlaridan kengroq foydalanishdir”.Bundan tashqari, ijtimoiy ish o‘quvchilar va ota -onalarni huquq va majburiyatlari, qonun hujjatlari bilan tanishtirish, shuningdek, nogironlar bilan bog‘liq jamoat va davlat tashkilotlari haqida ma'lumot berishni o‘z ichiga oladi. Ko‘rishida muammosi bo‘lgan o‘quvchilarni har tomonlama o‘rganish, ko‘rish qobiliyati va ikkilamchi buzilishlar bilan kuchayadigan individual rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, bolaning rivojlanishi, o‘qishi va ijtimoiylashuvidagi boshqa muammolarni ham o‘z

ichiga oladi. Tiflopedagog ishining diagnostik yo‘nalishini sentabr oyining dastlabki ikki haftasida (1 sentabrdan 15 sentabrgacha) va o‘quv yilining so‘nggi ikki haftasida (15 maydan 31 maygacha) amalga oshiriladi. Uning natijalari maktab yig‘ilishida muhokama qilinadi. Tuzatish pedagogik ish jarayonidagi ishlarni individual yo‘naltirilgan dasturini tuzatishga va bola rivojlanishining doimiy muammolariga e’tiborni qaratishga imkon beradigan oraliq imtihon taqdim etiladi. Yakuniy tashxis - bu ikkilamchi rivojlanish buzilishlarining barcha ko‘rinishlarini o‘rganishni qamrab oladigan, shuningdek universal ta’lim harakatlarining barcha turlarini shakllantirishni ochib beradigan chuqur kompleks tekshiruvni talab qiladi. O‘qituvchi-tiflopedagog maktab metodik birlashma yig‘ilishlarida qatnashib, individual darslar uchun sinfdagi metodik va didaktik adabiyot yangiliklari, individual darslar uchun tuzatish va rivojlantirish vositalari haqida ma’limot beradi. Inklyuziv ta’limni joriy etish jarayonidagi sodir bo‘layotgan tushinchalarni amaliyot bilan bog‘lagan tarzda ilmiy va uslubiy jihatdan doimiy ravishda takomillashtirib borishi yuqori natijalar berishiga sababchi bo‘ladi. Bundan tashqari tiflopedagog ishining bir qismi sifatida maslahat berish jarayoblari ham kuzatiladi, bunda ko‘rish qobiliyati cheklangan bolalarni har tomonlama rivojlantirish, o‘qitish, tarbiyalash va ijtimoiy hayotga moslashuvi bo‘yicha individual va guruhli maslahat berish;

- Ota-onalarning (yoki qonuniy vakillarining) psixologik-pedagogik tomonlama shakllantirish, shuningdek ularga o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilari bilan kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borishda yordam berish;

- O‘qituvchilarga va o‘quv jarayonining boshqa ishtirokchilariga ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolani rivojlantirish, o‘qitish va tuzatish yordami, maxsus rivojlanish muhitini yaratish va shu kabi bolani inklyuziv amaliyotda rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash bilan bog‘liq boshqa masalalar bo‘yicha maslahat berish;

- Profilaktik ish ko‘rish qobiliyati buzilgan bolada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ikkilamchi kasalliklar to‘g‘risida o‘z vaqtida ogohlantirishni ta’minlaydi. Tiflopedagog faoliyati yuqoridagi barcha jihatlari butun maktab ishi doirasida bolalarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning yagona jarayoniga kiritilgan. Defektolog o‘qituvchilar o‘zlarining sof mutaxassislik doirasidan kelib chiqib kasbiy vazifalarini turli xil o‘quv muassasalarida shu jumladan – maxsus va umumiy bolalar uylari va maktab-internatlarda bajaradilar hamda uy sharoitda ta’lim olayotgan rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalarni individual yondoshuv asosida, ta’lim-tarbiya ishlarini olib boradilar. Ushbu vaziyatda inklyuziv ta’limda faoliyat olib boradigan ommaviy maktab o‘qituvchi hamda maxsus ta’lim tizimining o‘qituvchisi quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishi kerak:

Pedagogik yo‘nalishda rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar bilan ishlashga, kasbiy qiziqishlariga va shaxsiy fazilatlariga, shuningdek kasbiy jihatdan o‘zini o‘zi anglashga qaratilgan psixologik munosabatlarni o‘zida jamlashi va o‘zing bilim, malaka, ko‘nikmalarini jamoaniki sifatida ko‘rishi, (Empatiya - boshqa birovning tajribasiga hissiy munosabat bildirish, o‘zaro munosabat, muloqot jarayonida u bilan hamdard bo‘lish qobiliyati bilmaganini so‘rab o‘rganish va bilganini birovga yetkazib beraolish qobiliyati). Pedagogik xushmuomalalik - o‘zini tutish qobiliyatida namoyon bo‘ladigan mutanosiblik hissi. Inklyuziv ta’lim o‘qituvchisining taktikasi shunday bo‘lishi kerakki, u shaxsiy qadr-qimmatini saqlab qolgan holda, bolalarning, ota-onalarining, ishdagi hamkasblarining qalbida doim yaxshi inson sifatida namoyon bo‘lishiga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qaysi sohada va yo‘nalishda ish olib borishimizdan qat’iy nazar o‘qituvchi milliy anana va qadriyatlarimizga asoslanar ekanmiz, biz kelajakdagi inklyuziv ta’lim sohasida dastlabki qadamlarni qo‘yar ekanmiz, yaqin kelajakda bemalol boshqa davlatlarga o‘rnak bo‘laoladigan inklyuziv jamiyat yaratamiz. Bunga hech qanday shubhaga o‘rin yo‘q deb hisoblaymiz. Chunki biz buyuk o‘tmishimiz- ustozlarimiz,jadidchilar: Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy kabi buyuk ustozlarning ta’lim jarayonlaridagi meroslariga va O‘zbekistonga inklyuziv ta’limni jalb qilishda o‘zining butun kuch-qudratini hamda umrini bag‘ishlagan olimamiz pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Fayziyeva Ubayda Yunusovnaning tajriblariga suyanamiz. Inkyuziv ta’lim o‘qituvchising xususiyatlari uchun namuna sifatida olamiz.

Ko‘zi ojizlik bolalarda asosiy hayotiy ko‘nikmalarini o‘rganish motivatsiyasini pasaytiradi va ushbu ko‘nikmalar bilan shug‘ullanish zarurati borligini yuzaga chiqaradi. Shug‘ullanish lozim bo‘lgan ko‘nikmalar orasida jismoniy tayyorgarlik sog‘lom bolaga qanchalik zarur va foydali bo‘lsa ko‘zi ojiz o‘quvchiga ham xuddi shunday muhimdir. Ko‘zi ojiz o‘quvchi muntazam jismoniy tarbiya darslarida qatnashishi kerak. Faqat o‘quvchining jismoniy mahoratiga qarab moslashuv jarayoni sodir bo‘ladi. U barcha tadbirlarda va jamoaviy sport turlarida qatnasha olmasligi mumkin. Lekin barcha bolalar qatori birdek sportga qiziqishi yuqori bo‘ladi. Parallel bajariladigan yoki muqobil jismoniy faoliyatni ta'minlanishi kerak va o‘quvchining imkoniyatidan kelib chiqib ma’lum bir sport turiga yo‘naltirish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ko‘rish qobiliyati pasaygan yoki ko‘zi ojiz bo‘lgan barcha bolalar har doim o‘zlariga xizmat ko‘rsatish ko‘nikmalarini, maishiy xizmat vazifalarini o‘rganishlari kerak. Barcha bolalar o‘z qadr-qimmatini bilishi bilmasa uni rivojlantirish va mustaqil faoliyat olib borishni o‘rganish,undan tashqari oilaviy ishlarga o‘z hissasini qo‘shish bu juda muhim vazifadir.

Ko‘rishida muammoli bo‘lgan o‘quvchi kundalik hayotida doimiy ravishda takrorlanadigan quyidagi ko‘nikmalarga ehtiyoj sezadi:

• shaxsiy gigiyena;
• kiyinish, o‘zining shaxsiy kiyimlarini tayyorlash va ozoda tutish;
• ovqatlanish vaqti bo‘lganda dasturxonni tuzash va ovqatlanish;
• jamoaviy ovqatlanish shoxobchalarida o‘zini tutish;
• pul sanash va u bilan aloqa o‘rnatish;
• ovqat tayyorlash;
• uy ishlarini olib borish va uy ishlariga tayyorlash ;
• xarid qilish ya’ni sotish va sotib olish;
• telefon va boshqa aloqa texnologiyalaridan foydalanish;
• sog‘liq va xavfsizlik;
• vaqt tushunchalari;
• o‘zini o‘zi himoya qilish;
• muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish;
• shaxsiy mulk va vaqtni tashkil qilish;
• kitoblar, materiallar va jihozlarni tartibga solish (kerakli buyumlarni kerak bo‘lganda topish va ular bilan bog‘liq ishlarni tugatgandan so‘ng ularni joyiga qo‘yish);
• topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish haqida tushunchani rivojlantirish;
• vaqtdan foydalanishni rejalashtirish va vazifalar orasidagi vaqtni qanday muvozanatlashni bilish;
• materiallar va uskunalar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish;
• manzillar, kalendarlar, jurnallar va boshqa tashkilot vositalaridan foydalanish; shu kabi muammolar birgina o‘quvchilarda emas o‘qituvchilarda ham kuzatiladi**:**



Inklyuziv ta’lim g‘oyasi tubdan o‘qituvchilar ongini egallab, ularning kasbiy tafakkurining ajralmas qismiga aylangan taqdirdagina o‘quv jarayoni o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Buni amalga oshirish uchun maxsus say-harakatlar talab etiladi. Inklyuziv ta’limni joriy etish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar va boshqa mutaxassislar darhol o‘qitishning ushbu shakli uchun zarur bo‘lgan professional rollariga mos kelmaydilar. Ular bir nechta bosqichlarni bosib o‘tishadi: ochiq yoki yashirin qarshilikdan boshlab, passiv qarshilikka o‘tish, keyin esa jarayon qanday bo‘layotganini faol qabul qilish. Mutaxassislar qo‘rqishadi: “Men buni qila olamanmi?” Ular ishdan bo‘shashdan, ishini yo‘qotishdan, mas’uliyatdan, xavf-xatarlardan, qo‘rquv va noaniqlik, shuningdek, mutaxassislar sodir bo‘layotgan voqealarni to‘liq nazorat qilishdan qo‘rqishadi.


Bunday hollarda oddiy maslahat beriladi:- “Nima bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘zingizning oldingizga maqsad qilib olgan vazifangizni qilishingiz kerak”. Siz qo‘rquvlaringizni yoqotishingiz va ishlashda davom etishingiz kerak. Inklyuziv ta’lim jarayoniga jalb qilingan o‘qituvchilarning ta’kidlashicha, ular bir necha

hafta davomida qo‘rquvni boshdan kechirishgan va go‘yo sehrgarlik qilganidek har bir inson qo‘rqqanini eslaydi, lekin hech kim aniq nimadan qo‘rqqanini eslamaydi, ammo qo‘rquv o‘tib ketadi. Odatda bu holat olti hafta davom etadi. “Xavotir olmang”, “Qo‘rqmang” degan so‘zlar dalda bo‘ladi. Bu jarayon osonlik bilan bo‘lmaydi, juda katta mehnat talab qiladi. Ammo biz inson bu bilan to‘xtab qolmasligimiz kerak chunki biz barchamiz o‘zgarish tomon borishingiz kerak.

Odatiy shaklda ta’lim olayotgan sog‘lom bolalarning ota-onalari, ba’zida maxsus yordamga muhtoj bolalar sinfda bo‘lishi, o‘z farzandining rivojlanishini kechikishi mumkinligidan tashvishda bo‘ladilar. Biroq tajribalar buning aksini ko‘rsatadi. Bundan tashqari odatiy shaklda maxsus maktab-internatlarda ta’lim olayotgan bolalarning Ko‘rsatkichlaridan inklyuziv ta’lim sharoitda o‘qiyotgan bolalarning natijalari yuqoriroq chiqqanligi isbotlandi. Inklyuziv ta’lim olayotgan va ommaviy maktab sinfidagi bolalarning ota-onalari ham hech qanday tahlikaga tushmasligi kerak, chunki biz do‘stona munosabatlarga asoslangan milliy qadriyatlari yuksak davlatning fuqarolarimiz. Bizda hech qachon o‘zgani kamsitish uni ustidan kulish chetga chiqarib tashlash holatlari kuzatilmaydi. Inklyuziv maktabda o‘qiyotgan bolalarning yutuqlariga kelsak, xulq-atvorida, ijtimoiy rivojlanishida va akademik muvaffaqiyatlarida undan tashqari nutqida ham sezilarli darajada yuqori bo‘ladi.

Inklyuziv ta’lim joriy etilgan umumta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan jamoa a’zolarining har birining vazifalari mavjud. Misol uchun direktor qo‘llab-quvvatlash guruhining a’zosi. U dastur rejalarini tayyorlash, amalga oshirish va baholashni ta’minlaydi. Direktor o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, yordamchi xodimlarni ta’minlaydi, talabga muvofiq tegishli materiallar va o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazadi. Direktor ko‘pincha jamoaviy qarorlarning bajarilishini ta’minlaydigan shaxsdir.

• o‘quvchini maktabga qabul qilish;
• jamoaviy qarorlarni qonuniylashtirish;
• o‘quvchini maktab faoliyatiga qo‘shish;



• ota-onalarning ishtirokini kutib olish;
• ilg‘or tajribalarni qo‘llab-quvvatlash.

Shuningdek direktorning vazifasiga dasturni baholash vazifasini bajaradi.

Maktab direktori o‘quvchining individual dasturini muvofiqlashtirish va ishlab chiqish uchun asosiy mas’uliyatni o‘qituvchiga, odatda maxsus ta’lim o‘qituvchisiga yuklaydi. Xodimlar ota-onalar va kerak bo‘lganda o‘quvchilar va boshqa mutaxassislar yordamida dastur rejalarini ishlab chiqadilar. Muvaffaqiyatli dastur rejasini ishlab chiqish va amalga oshirishda guruh a’zolarini ishtirok etadi. Ulardan o‘**quvchi**:

• qo‘llab-quvvatlash guruhining maqsadi va dastur rejasini bu jarayonda qanday ishtirok etishini tushunishi;

• kerak bo‘lganda dasturni rejalashtirish yig‘ilishlarida qatnashishga da’vat etilishi;

• o‘z maqsadlarini aniqlay olishi, belgilashi va tushuntira olishi;

• maqsadlar qanday qilib individual tarzda tuzilishini, baholanishini, ko‘rib chiqilishini va yangilanishini tushunishi;

• kerak bo‘lganda maqsadlarni kuzatish uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish;

• o‘zini o‘zi himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

